

15-Mart, 2025-yil

## TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSİON TEKNOLOGİYALARNI QO’LLASH

**Maxmudova Nigora Hikmatovna**

*Osiyo xalqaro universiteti o’qituvchisi*

**Shomurodova Farangiz**

*Osiyo xalqaro universiteti talabasi*

---

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo’llashning ahamiyati, ularning samaradorligi hamda zamonaviy pedagogik jarayonda tutgan o’rni haqida so’z boradi. Innovatsion texnologiyalarning ta’lim sisati va samaradorligini oshirishga ta’siri tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *innovatsion texnologiyalar, ta’lim jarayoni, interaktiv usullar, raqamli ta’lim, zamonaviy pedagogika.*

**Аннотация:** В данной статье говорится о важности использования инновационных технологий в образовательном процессе, их эффективности и роли в современном педагогическом процессе. Анализируется влияние инновационных технологий на повышение качества и эффективности образования.

**Ключевые слова:** *инновационные технологии, образовательный процесс, интерактивные методы, цифровое образование, современная педагогика.*

---

**Kirish** Bugungi kunda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarga sifatli bilim berish uchun innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ta’lim sifatini yaxshilash imkonini beradi. Shu sababli, ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni, ularning samaradorligi va amaliyotga tatbiq etish masalalari tahlil qilinadi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo’lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy talimda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi. O’qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Talim jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo’lishlarini ta’minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik,

# “O’ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH VA INNOVATSIYALARNI QO’LLASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiysi

15-Mart, 2025-yil

o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to’liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu jamoa bo’lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo’lib talim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o’ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o’quvchining birgalikda faoliyat ko’rsatishi orqali amalga oshiriladi.

**Asosiy qism** Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ular quyidagi yo‘nalishlarda ta’lim jarayoniga ta’sir ko’rsatadi:

## 1. **Interaktiv o‘qitish metodlari**

- Interaktiv ta’lim usullari o’quvchilarning faolligini oshirishga yordam beradi.

Masalan, klaster metodi, «Baliq skeleti» metodi, «Aqliy hujum» va «Bahs-munozara» usullari o’quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

## 2. **Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT)**

- AKT yordamida masofaviy ta’lim, onlayn darslar va virtual laboratoriyalarni joriy qilish imkoniyati mavjud. Elektron ta’lim platformalari (Moodle, Google Classroom, Coursera va boshqalar) o’quvchilarga istalgan vaqtda ta’lim olish imkoniyatini yaratadi.

## 3. **Raqamli resurslar va sun’iy intellekt imkoniyatlari**

- Sun’iy intellekt asosida qurilgan tizimlar ta’lim jarayonini shaxsiylashtirishga yordam beradi. Masalan, adaptiv ta’lim dasturlari har bir o’quvchining qobiliyatiga mos ravishda ta’lim materiallarini tanlash imkoniyatini yaratadi.

## 4. **Gamifikatsiya va ta’lim jarayonida o‘yin elementlaridan foydalanish**

- O’quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni ta’lim jarayoniga faol jalg qilish uchun gamifikatsiya usulidan foydalaniladi. Masalan, dars jarayonida reyting tizimlari, ball to‘plash va sovrinlar taqdim etish motivatsiyani oshiradi.

**Xulosa** Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va o’quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli qilish imkonini beradi. Ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish pedagoglar va o’quvchilar o’rtasidagi o’zaro aloqani yaxshilaydi, mustaqil ta’lim olish imkoniyatini kengaytiradi va natijada ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga yanada kengroq joriy etish orqali o’quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

## ADABIYOTLAR:

1. Hikmatovna, M. N. (2023). Goals and Tasks of Education. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 360-362.
2. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG’ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O’QITISH JARAYONIDA QO’LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.
3. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American*

15-Mart, 2025-yil

*Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 386-388.

4. Mahmudova, N. H. (2023). Influence of family environment on personal socialization. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 440-446.
5. Nigora Hikmatovna Mahmudova. (2023). BASIC TASKS OF TEACHING THE SCIENCE OF "EDUCATION" IN PRIMARY GRADES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 447–452.
6. Hikmatovna, M. N. (2024). Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 31-43.
7. Mahmudova Nigora Hikmatovna. (2024). INFLUENCE OF FAMILY ENVIRONMENT ON PERSONAL SOCIALIZATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 164–170.
8. Hikmatovna, M. N. (2024). CONTENT OF THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(2), 88-94.
9. Hikmatovna, M. N. (2024). Teaching of specialized subjects in primary education. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 453-460.
10. Hikmatovna, M. N. (2024). Boshlang'ich ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 445-452.
11. Махмудова Нигора Хикматовна. (2024). Преподавание профильных предметов в начальной школе . *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 436–444.
12. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИИ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 1(3), 26-31.
13. Ikromova, S. A. (2024). INTELLEKT VA IQBOL: KOGNITIV PSIXOLOGIYA. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 99-104.
14. Икромова, С. А. (2024). ОСНОВНЫЕ ОБЩИЕ ПОНЯТИЯ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПСИХОЛОГИИ. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 1(3), 20-25.
15. Икромова, С. А. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МОЛОДЕЖИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КРИЗИСЫ. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 1(2), 29-35.
16. Икромова, С. А. (2024). ПОЗНАВАТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ И ПАМЯТЬ ЧЕЛОВЕКА. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 1(3), 59-65.

**“O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH VA  
INNOVATSIYALARNI QO'LLASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi

15-Mart, 2025-yil

17. Ikromova, S. A. (2024). PSIXOLOGIK SALOMATLIK VA UNING JAMIYATDAGI ROLI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 93-98.
18. Икромова, С. А. (2024). КОНСУЛЬТИРОВАНИЕ И ТЕРАПИЯ ЛЮДЕЙ В СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЕ. New modern researchers: modern proposals and solutions, 1(2), 8-14.
19. Toymurodov, A. (2023, December). MODERN INTERPRETATION OF PSYCHODIAGNOSTICS AND PSYCHOCORRECTION OF EXTREME SITUATIONS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE "SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 5, pp. 71-79).
20. Toymurodov, A. (2023). BASICS OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICES TO MILITARY PERSONNEL. *Академические исследования в современной науке*, 2(24), 148-152.